


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

10/2024

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

10/2024

<https://buxdu.uz>

Turolova P.Sh.	Badiyyatda shoira mahorati	124
Eshonqulova G.T.	Badiiy tarjima jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	129
Ruziyeva D.N.	The image of father in the world literature	133
Mashrapova G.A.	Xalq inonchlarida safar motivi	137
Милованова Е.В.	Поле цвета в словарном представлении и его воплощение в художественном тексте (на материале рассказов Ю. Казакова)	142
Karimova Sh.K.	Ingliz va o'zbek she'riyatida parallel qurilma va teskari parallelizmning vazifalari	148
Israilov G'.B.	Sakkokiyy g'azaliyotida majoziy tasvir va badiiyat	153
“NAVOIY GULSHANI”		
Ibotova M.O.	Chun kamoli ma'rifat kasb o'ldi, ne nuqson o'lum...	158
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Баходиров Б.Б.	Глобаллашув жараёнида ижтимоий сиёсат тенденциялар ва акторларнинг шаклланиши ҳамда аҳамияти	161
Murtalibova M.M.	Yaqin Sharq mintaqasi: strategik ahamiyati, geosiyosati va zamonaviy xavfsizlikni ta'minlashning dolzarb muammolari	166
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Холов В.Ю.	Ўзбекистонда совет қатағон сиёсати инглиз матбуоти нигоҳида	173
Жуманазаров Х.С.	Миллий тиб тизимида даволаш анъаналари (1867-1917 йиллар)	179
Sirojov O.S., Sirojov Q.O.	Fashizmga qarshi urush yillarida Buxoro sanoati (1941-1945-yillar)	184
Jumaeva N.A.	Buxoro vohasi dehqonchilik an'analari tarixidan (XIX asr oxiri-XX asr boshlari)	191
Boltayev B.B.	Maktab muzeylarining ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni (Buxoro viloyati misolida)	196
Utayeva F.X., Sharipova P.Q.	Buxoro viloyati iqtisodini rivojlantirishda yengil sanoatning o'rni	201
Axmedov S.B.	“Matlayi sa'dayn”dagi Temuriylarning diniy munosabatlarga oid siyosati bilan bog'liq ma'lumotlar tahlili	207
Babayarova Sh.Sh.	Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”(“Sharafnomayi Shohiy”) asari Buxoro xonligi tarixini o'rganishda muhim manba	212
PEDAGOGIKA *** PEDAGOGY *** ПЕДАГОГИКА		
O'ktamov M.O'.	Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining axborot kompetentligining mazmuni va mohiyati	216
O'ktamov M.O'.	Pedagogika OTM talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirishning metodologik asoslari	221

BUXORO VILOYATI IQTISODINI RIVOJLANTIRISHDA YENGIL SANOATNING O‘RNI

Utayeva Feruza Xolmamatovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)
Sharipova Parizod Quvvatjon qizi,
Buxoro davlat universitetining iqtidorli talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asrning 70-90- yillarida Buxoro viloyati iqtisodini rivojlantirishda yengil sanoatning o‘rni masalasini yoritishda tumanlarda tashkil etilgan yigiruv-to‘quv fabrikalarning, xususan, Vobkent, G‘ijduvon, Qorako‘l, Olotda tashkil topishi tadqiq etiladi. Asosan, tashkil etilgan to‘qimachilik fabrikalaridagi ish faoliyati, ish o‘rinlarining yaratilishi va ishlab chiqarish holatlari, shu bilan birga, viloyat, respublika iqtisodiyotining rivojiga qo‘shgan hissalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: iqtisod, aholi, ish o‘rinlari, paxta, yigiruv- to‘quv, fabrikalar, rivojlanish, yengil sanoat, qurilish ishlari, ishlab chiqarish, rangsiz va rangli matolar.

РОЛЬ ЛЁГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. В данной статье в 70-90-х годах XX века с целью выяснения роли лёгкой промышленности в развитии экономики Бухарской области было осуществлено создание прядельно-ткацких фабрик в районах, особенно в Вобкенте, Гиждуване. Каракуле, Алате. При этом были проанализированы трудовая деятельность, создание рабочих мест и условия производства созданных текстильных фабрик, а также их вклад в развитие экономики региона и республики.

Ключевые слова: экономика, население, рабочие места, хлопок, прядение и ткачество, фабрики, развитие, лёгкая промышленность, строительные работы, производство, окрашенные и цветные ткани.

THE ROLE OF LIGHT INDUSTRY IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF BUKHARA REGION

Abstract. In this article, in the 70s-90s of the 20th century, in order to clarify the role of light industry in the development of the economy of the Bukhara region, the establishment of spinning-weaving factories in the districts, especially in Vobkent, Gijduvon, Karakol, Olot, is studied. At the same time, the work activity, job creation and production conditions of the established textile factories were analyzed, as well as their contribution to the development of the economy of the region and the republic.

Keywords: Economy, population, jobs, cotton, spinning and weaving, factories, development, light industry, construction works, production, dyed and colored fabrics.

Kirish. Yengil sanoatning muhim tarmogi bo‘lgan to‘qimachilik fabrikasi 1970-yillarda Buxoro shahrida tashkil etilgan bo‘lib, davlat talabi va aholi ehtiyojlarini hisobga olgan holda, viloyatning to‘rtta tumanda to‘quv va yigiruv fabrikalari ham tashkil etilgan. Buxoro viloyati iqtisodini rivojlantirishda 1970-1990-yillarda yengil sanoat alohida o‘rinda turgan. Sababi, to‘quv va yigiruv fabrikalari aholi istiqomat qiladigan hududlarda tashkil etilgan bo‘lib, aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maqolada O‘zbekistonning to‘qimachilik sanoati taraqqiyotida Buxoro to‘qimachilik fabrikasining tashkil etilishi va xotin-qizlarni yengil sanoat sohasida tajribasini orttirish va ishchi kadrlar tayyorlash tarixi va o‘rni haqidagi ma‘lumotlar bir qator adabiyotlar va ilmiy ishlarni ilmiy va metodologik tahlil qilgan holda bayon etilgan. Asosan,

1. Tadqiqot jarayonida olib borilgan suhbatlar
2. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar.
3. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda nashr etilgan tadqiqotlar asosida bayon etildi.

Metodlari. Mazkur maqolada tarix fanida tadqiqotlar olib borishning muammoli-xronologik, obyektivlik, tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari. Buxoro viloyatida 1970–1990-yillarda to‘qimachilik sanoatining ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga o‘sib borgan. Alohida to‘qimachilik sohasiga qiziqish va yengil sanoat mahsulotlariga

ehtiyoj oshgan. Buxoro to'qimachilik kombinati 1980-yillarda O'rta Osiyoda yetakchi o'rinlarni egallagan. Belgilangan rejalarning ortig'i bilan bajarilishi va eksport salmog'ining o'sishi kombinatning yanada kengaytirish imkoniyati yaratildi va tumanlarning imkoniyatidan kelib chiqib Buxoro to'qimachilik sanoatining filiallarini bunyod qilish uchun har tomonlama qulay joylar tanlangan.

Vobkent tumanini Buxoro viloyatining asosiy transport va iqtisodiy mintaqasi, yo'lagi yoki tarixiy geografik hududi deb baholash mumkin.[1] Buxoro to'qimachilik sanoati filiali uchun yo'l yoqasiga yaqin bo'lgan va aholisi zich joylashgan Vobkent hududi tanlangan. Vobkent tumanida 1980-yil oktabr oyida aholi zich yashaydigan tuman markazida to'quv fabrikasi qurilishi boshlangan. Buxoro to'qimachilik kombinatining 163-qurilish tresti qurilish ishlariga rahbarlik qilgan. Qurilish ishlari bilan bir vaqtda Vobkent to'quv fabrikasiga malakali ishchi xodimlarni tayyorlash uchun tuman markazida Buxoro shahridagi 100-sonli kasb-hunar bilim yurtining filiali tashkil etilgan. Tuman markazidan va qishloqlardan kelgan yosh yigit-qizlarga to'quv mashinalarini va dastgohlarini ishlatish uslublari o'rgatilgan.

Buxoro to'qimachilik kombinati Vobkent shahridagi to'quv fabrikasi filiali xodimlariga turar-joy uchun 200 o'rinli yotoqxona, 280 o'rinli bolalar bog'chasi barpo etish maqsadida Vobkent tumaniga 1981-yil 13-mayda ariza bilan murojaat qilingan. Yer uchastkasini tanlash uchun kolxoz yig'ilishlari bayonnomasini ko'rib chiqib, Vobkent tuman ijroiya komiteti raisi N. Buranov 1981-yil 14-iyul Buxoro to'qimachilik kombinati Vobkent shahridagi to'quv fabrikasi filiali xodimlari uchun qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan maydondan 2,50 gektar, foydalanilmayotgan maydondan esa 0,08 gektarga uy-joy qurish uchun yer ajratilgan. Ularning narxlari mos ravishda 16250 rubl va 3000 rubl qilib belgilangan. Buxoro to'qimachilik kombinati tomonidan yerlarga ariza berilgan va sotib olingan.[2]

Vobkent tumanidagi to'quv fabrikani qurilish ishlarida butun tuman aholisining hissasi qo'shilgan. 1981-yil sentabr oyidan fabrika uchun keltirilgan mashina va uskunalarni hamda to'quv dastgohlarini o'rnatish ishlari boshlangan. 1982-yil Buxoro to'qimachilik kombinatining Vobkentdagi filialida 560 dona to'quv dastgohlari to'liq o'rnatilgan. To'quv fabrikasi yonida mexanika va asbob-uskuna zavodi, umumiy ovqatlanish boshqarmasi ishga tushirilgan. 1982-yil Vobkent to'quv fabrikasining ochilish marosimida respublikaning birinchi rahbari Sh.R. Rashidov qurilish ishlari bilan tanishib ochilish marosimida qatnashgan va nutq so'zlagan. [3] Vobkent tumani xalqining to'qimachilik sanoati rivojiga qo'shgan hissalar alohida ta'kidlab o'tilgan.

1980–1982-yillarda Vobkent to'quv fabrikasining qurilish ishlariga bevosita rahbarlik qilgan Davirov Shukrullo Norovich fabrika ish faoliyatini boshlashi bilan direktor vazifasiga tayinlangan. Dastlab fabrika bir smenada yilning oxirida ikki-uch smenada ishlay boshlagan. Fabrikada 450 dan ortiq yigit-qizlar ish bilan ta'minlangan.

O'zbekiston to'qimachilik sanoati rahbari X.M. Maqsumovning 1983-yil 14-apreldagi 54-son buyrug'iga asosan Vobkent to'quv fabrikasida ilk ishlab chiqarish majburiyatlari bajarilgan. Vobkent to'quv fabrikasi ishlab chiqarishni boshlagandan so'ng, 1983-yil Buxoro to'qimachilik kombinati yuqori ko'rsatkichlarga erishgan. 1982-yilga nisbatan momiq sochiqlar ishlab chiqarish 315 ming donaga oshirilgan. Bunday yuqori natijalar Vobkent to'quv fabrikasida ham kuzatilgan.

Vobkent ip-yigiruv fabrikasida 1984-yil qurilish va montaj ishlari boshlangan. N. Mo'minov fabrikada direktor (1984–1987 yy) lavozimini bajargan. Vobkent to'quv fabrikasi hisobotidagi ma'lumotlariga ko'ra, 1984-yil 7 tonna ip kalava tejalgan va mehnat unumdorligi oshirilgan. Rejadan ortiq gazlama ishlab chiqarishda Vobkent to'quv fabrika ishchilari yaxshi natijalarga erishgan. O'n birinchi besh yillikning yakuniy yilida ishlab chiqarish hajmi 48 million so'mdan oshgan. Fabrikada nazorat guruhi tashkil etilgan bo'lib, ishlab chiqarish jarayonini doimiy nazorat qilib borilgan. Ularning ish samaradorligi rag'batlantirib borilgan.

Vobkent to'qimachilik va ip-yigiruv fabrikalari reja asosida bir-biriga yonma-yon qilib qurilgan. Ip yigirilib kalava holiga keltirilgan va maxsus ip-kalavani yuklaydigan aravalarda Vobkent to'qimachilik fabrikasiga o'tkazilgan. Oraliq masofa yaqin bo'lganligi sababli ortiqcha xarajat va vaqt sarflanmagan.

Fabrika ishchilarining farzandlari uchun 1987-yil yakunida ikkita bolalar bog'chasi qurib bitkazilgan va foydalanishga topshirilgan. Fabrikadagi yutuqlar bilan birga muammolar ham yuzaga kelgan. Jahon standartlariga javob bermaydigan past sifatli ip va gazlamalar ham ishlab chiqilgan. Vobkent ip-yigiruv binosini avtomatlashtirish va asosiy yukni yigiruv mashinalarda bajarilishi davr talabi bo'lishiga qaramasdan, ikkala fabrika binolari o'rtasidagi masofaning imkoniyatlari yetarli bo'lmagan. Ip yigiradigan 60 ta mashinadan 20 tasi sifatli ishlagan. 1988-yil 31-oktabrda ip-yigiruv fabrikasiga yana 10 ta 76-5MY (yigiruv mashinasi) keltirilgan. Fabrika binosida yigiruv mashinalari uchun sharoit bo'lmaganligidan o'rnatish ishlari uzoqqa cho'zilgan. Qabul qilib olingan yigiruv mashinalarini to'liq o'rnatib bo'lganidan keyin yuqori sifatli ip-kalava ishlab chiqarishga kirishilgan. Buxoro to'qimachilik kombinatidan Vobkent ip-

yigiruv fabrikasiga 1988-yilning oxirigacha ip-kalava ishlab chiqarish 60 foizga oshirilishi haqida topshiriq berilgan [4].

Vobkent yigiruv-to'quv fabrikalari va Buxoro to'qimachilik kombinati rahbariyati o'rtasida kadrlar masalasida kelishmovchiliklar ko'p marta yuzaga kelgan. Vobkent yigiruv-to'quv fabrikalari uchun tayyorlanayotgan xodimlarning hammasi o'z joylariga yuborilmasdan Buxoro to'qimachilik kombinatida qoldirilgan. Avvalgidek ishchilar avtobuslarda Buxorodan Vobkentga olib kelingan. Bu ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqarganligini hisobga olib, 1988-yil noyabr oyi oxirida 36 nafar asosiy kasb egalari Vobkent filialiga o'tkazilgan. Ular orasida 12 ta yigiruvchi, 24 ta master va tarash dastgohi boshqaruvchisi bo'lgan. Yil oxiriga qadar Vobkent yigiruv-to'quv fabrikalarini zarur xodimlar bilan to'ldirish rejalashtirilgan. Ishchilar ikki smenada ishlashi uchun yana to'rt yuz nafar tajribali ishchilar yetishmasligiga qaramasdan muammo yilning oxirigacha hal etilmagan. Vobkent yigiruv-to'quv fabrikasi zimmasiga oliy o'quv yurti va kasb-hunar dargohlarida o'qishga qabul qilingan talabalardan o'zlari uchun xodimlar tayyorlash vazifasi qo'yilgan, bu esa bir qadar vaqtni talab etgan.

Vobkentlik ishchilarning ko'pchiligi Buxoro to'qimachilik kombinati rahbariyatiga Vobkent yigiruv-to'quv fabrikasiga ishga o'tkazishni so'rab ariza yozishgan bo'lsalar-da, bu arizalar tez fursatlarda ko'rib chiqilmagan. Rahbariyatga Vobkent filialidan ko'ra Buxoro to'qimachilik kombinatidagi ishlab chiqarish rejasini bajarish muhim bo'lganligi sababli Vobkent ishchilari o'z hududlariga ishlashga ruxsat berilmagan. 1989-yil Vobkent yigiruv-to'quv fabrikasida ishchilarning malakasizligi tufayli ishlab chiqarish rejalari bajarilmagan.

1989-yil 1-iyundan Buxoro to'qimachilik kombinati "Buxoro ip-gazlama ishlab chiqarish birlashmasi" deb almashtirilishiga qaror qilingandan so'ng Buxoro to'qimachilik kombinati tarkibidagi filiallar kombinat tarkibidan ajratilib, Buxoro ishlab chiqarish birlashmasining mustaqil fabrikasi maqomiga ega bo'lgan. Shunga ko'ra, Vobkent, G'ijduvon, Qorako'l va Olotning hisob-kitobi alohida deb belgilanib, fabrikalar xo'jalik hisobiga o'tgan.

Filiallar mustaqil fabrika sifatida ish yuritsada, yuqoridan talab qilinadigan tovarlar ishlab chiqaradigan uskunalarning ko'rsatkichlari talab darajasiga to'g'ri kelmagan. Ko'pincha ma'muriyatning aybi bilan fabrikalarda ish asossiz to'xtab qolishiga sabab bo'lgan.

Buxoro to'qimachilik kombinatining filiali G'ijduvon ip-yigiruv fabrikasining qurilish ishlari 1981-yilda boshlanib, hunarmand va to'quvchilarning markazlaridan biri bo'lgan. G'ijduvon aholisi zich yashaydigan hudud hisoblanganligi sababli viloyatning asosiy transport qatnovi iqtisodiy mintaqasi va tarixiy-geografik hududi bo'lgan joy tanlangan. Qurilish ishlari Buxoro to'qimachilik kombinati rahnomaligida va nazoratida boshlangan. Buxoro to'qimachilik kombinat direktori A.I. Ismoilov (1976–1982 yy) kadrlar siyosati, uy-joylar va filiallar qurilishiga katta e'tibor qaratgan. Aynan, A. Ismoilov rahbarligi davrida Buxoro to'qimachiligi ishlab chiqarish sanoat sohasida O'zbekistonda yetakchi o'rinda turgan. G'ijduvon ip-yigiruv fabrikasida yangi ish o'rinlarining yaratilishi aholining turmush tarziga va iqtisodiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

G'ijduvon tuman markazidan Buxoro to'qimachilik kombinatining ip-yigiruv fabrikasini qurish uchun tuman ijroiya qumitasi raisi M. Maqsudov bilan hamkorlikda "Guliston" kolxozi yerlaridan yer maydoni ajratib olingan. 1981-yil 11-yanvar G'ijduvon tuman kengashi qaroriga asosan 24 kvadrat metr yer maydoni, 20 ta ikki xonali uy va 2,6 gektar yerga qurilgan turar-joy binosi Buxoro to'qimachilik kombinati qurilish direksiyasi ixtiyoriga topshirilgan. 1981-yil 12-yanvarda 2,6 gektar turar-joy binosi uchun O'zbekiston SSR davlat bankining 81801 hisob raqamiga 16.900 rubl mablag'ni to'lash, Buxoro to'qimachilik kombinati qurilish direksiyasiga yuklatilgan.

1981-yil 14-yanvarda 2,2 gektar yer ajratilgan bo'lib, xodimlarga 20 ta yakka tartibdagi turar-joy binolari berilgan. Buxoro to'qimachilik kombinati qurilish direksiyasi zimmasiga 14.300 rubl mablag'ni to'lash yuklatilgan va bu topshiriqni bajarish ishlari tezlashtirilgan. 1982-yilda Buxoro to'qimachilik kombinatining G'ijduvondagi ip-yigiruv fabrikasiga 33936 dona yigiruv dastgohlari keltirilgan. Mexanika zavodi va umumiy ovqatlanish boshqarmasi qurilishi fabrika ishchilarining iqtisodiy sharoitlarini yaxshilanishiga sabab bo'lgan omillardan biri bo'lgan. 1983-yil 28-mayda G'ijduvon ip-yigiruv fabrikasi maydonini kengaytirish uchun KPSS XXV syezdi nomidagi Buxoro to'qimachilik kombinati G'ijduvon tumani ijroiya qo'mitasi raisi S. Raxmonovga murojaat bilan chiqqan. G'ijduvon ip-yigiruv fabrikasiga 6,0 gektar yer maydoni ajratilgan va 39.000 rubl bank hisob raqamiga o'tkazilishi so'ralgan. Bu murojaat Buxoro to'qimachilik kombinati tomonidan bajarilgan.

Toshkent to'qimachilik institutida o'qigan Sanobar Ravshanova G'ijduvon ip-yigiruv fabrikasida 1981-yildan o'z mehnat faoliyatini boshlagan, dastlab oddiy yigiruvchi keyin master vazifasini bajargan. 1983-yildan 2012-yilgacha G'ijduvon ip-yigiruv fabrikasida xodimlar bilan ishlash bo'yicha bo'lim boshlig'i

lavoziyida faoliyat yuritgan. G'ijduvon ip-yigiruv fabrikasida 1981-yil boshlangan qurilish ishlari shiddat bilan olib borilgan va bir yarim yilda qurib bitkazilgan. G'ijduvon ip-yigiruv fabrikasi 1983-yilning qishida ishga tushirilgan. [5] Davlat rahbari Sh.R. Rashidov 1983-yili qurilish ishlari bilan tanishgan va ochilish marosimida qatnashib nutq so'zlagan. G'ijduvon ip-yigiruv fabrikasi qurilish ishlarida 1981–1983-yillarda 900 dan ortiq quruvchilar ishlagan.

G'ijduvon ip-yigiruv fabrikasida ishlab chiqarish jarayoni yaxshi yo'lga qo'yilgan. O'sha davrda to'quv fabrikasining yo'qligi aholining ehtiyojiga sabab bo'lgan. Sababi ip-kalava viloyatning yigiruv-to'quv fabrikasida to'qilgan. Bu ishga biroz vaqt va mablag' sarflangan. G'ijduvonda ip-kalavani to'qiydigan to'quv fabrikasi qurilishi haqida bir necha bor yig'ilishlarda takliflar kiritilgan. G'ijduvon ahli mehnatkash, ilmga va hunarga intiluvchan bo'lganligi, aholi gavjumligi va mutaxassislar yetishib kelayotganligini hisobga olib, 1984–1985-yillarda G'ijduvon ip-yigiruv fabrikasi yonidan to'quv fabrikasi qurilishi boshlangan. Atrof tumanlardan va Navoiy viloyatidan ishchilar, quruvchilar, mutaxassislar kelib qurilish ishlarida qatnashgan. 1985–1986-yillarda G'ijduvon ip-yigiruv va G'ijduvon to'quv fabrikalarining ish faoliyati qizg'in kechgan (Ilova №17, 18, 19). U yerda 1,5 mingdan ortiq ishchilar mehnat qilgan. Bundan tashqari masofa hisobga olinib, 100-sonli kasbiy ta'lim maktabining 70 ga yaqin talabalari 3 ta avtobusda G'ijduvondan Vobkent to'qimachilik fabrikasiga kelib to'quv dastgohlarini ishlatishni o'rgangan. Talabalar tayyorlov sexi, yigiruv sexi, ip kalavalash sexlarida va to'qimachilik stanoklarida amaliyot o'tab tajribalarini o'rttirgan. 1983-yil G'ijduvon ip-yigiruv fabrikasi yillik ishlab chiqarish rejasini 60 foiz bajarishga va'da berib, bu vazifani 64,4 foizga ortig'i bilan bajargan. Buxoro to'qimachilik kombinatiga ortiqcha ip kalava yetkazib berilishi O'zbekiston to'qimachilik sanoati rahbari X.M. Maqsumovning 1983-yil 14-apreldagi 54-son buyrug'i hisobotlarida keltirib o'tilgan.

G'ijduvon yigiruv-to'quv fabrikasida ish uch smenada olib borilgan. Kechki navbatda ishlaydiganlarga qo'shimcha haq to'langan. G'ijduvon yigiruv-to'quv fabrikasida bosh injener bo'lib ishlagan M.A.Umarov 1987-yil fabrika direktori lavozimigacha ko'tarilgan. Ikkala fabrikaning xavfsizlik masalasi va ta'mirlash ustalari ishlarini o'rganib chiqqan. 1987-yil 16-iyulda M.A. Umarov tomonidan master va ustalarga ogohlantirish yoki hayfsanlar berilgan. Jumladan, yigiruv sexida xavfsizlik qoidalarini buzganligi uchun Matluba Salimjonovaga, tayyorlov sexi ustasi Dilmurod Soliyevga qayta qoidabuzarlik sodir etganligi uchun tanbeh berilgan. To'qimachilik sexi ustaxonasi ishchilarining xavfsizligini nazorat qilish yetarli bo'lmaganligi uchun Toshpo'lat Xo'jayev va usta Vohid Choriyevlar ogohlantirilgan, shuningdek, mehnat jamoalariga qaytadan qat'iy ko'rsatmalar berilgan. [6] Bunday vaqtlarda, albatta, ularning ish haqlaridan chegirmalar qilinib, mukofot pullaridan mahrum qilingan, qo'shimcha ish haqi olmaganlar. Fabrika ishchilarining ish haqlari 70 so'mdan 210 so'mgacha bo'lgan.

Talab va ehtiyojga qarab Buxoro to'qimachilik kombinati o'z hududlarini tumanlarda kengaytira boshladi. Qorako'l tumanida ip-yigiruv fabrikasi qurilishi rejalashtirildi. Qorako'l tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, paxta tozalash zavodi dastlabki sanoat korxonalaridan hisoblangan. 1985-yilda Qorako'l paxta tozalash zavodining ishga tushganligiga 87 yil bo'lgan. 1885-yil Buxoro amirligi davrida bu yerdan temir yo'lining o'tishi bilan taraqqiyot ham kirib kelgan. 1898-yil paxtani qayta ishlash sanoati Qorako'lida ishga tushirilgan. Aynan, shu kabi jihatlar ham hisobga olinib, Qorako'l tumani ip-yigiruv fabrikasi uchun tanlangan.

Buxoro to'qimachilik kombinatining filiali sifatida Qorako'l ip-yigiruv fabrikasi qurilishi 1985-yilda rejaga kiritilib, qurilish ishlari boshlangan. 1986-yilda tezlik bilan qurib bitkazilib ishga tushirilgan. Aynan, Qorako'l ipakdek mayin paxta tolasini tarashlashga moslashtirilgan fabrika bo'lgan [7]. Ingichka va uzun tolali ipni qayta tarash ishi murakkab bo'lib, ishchilar soni ko'p talab etilgan. O'zbekistonda ipni qayta tarash fabrikalari Toshkentda va Buxoroda bo'lgan. Qorako'lida yetishtirilgan paxta respublikada ikkinchi o'rinda turgan. Tolaning uzunligi 38–39 mm bo'lib, paxta Qorako'l ip-yigiruv fabrikasida eksportbop qilib qayta taralgan. Eksport salohiyatini oshirish uchun Rossiya, Chexiya va Italiyadan ipni tarash dastgohlari keltirilgan.

Aholini ish bilan ta'minlanishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1987-yillarda 500 kishi 1990-yillarda 600 kishi ish bilan ta'minlangan. Uzoqdan qatnaydiganlarga avtobuslar tashkil etilgan. To'rtta avtobus fabrika ishchilariga xizmat qilgan. Ip-kalavani Buxoro shahriga yetkazib berishda ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va aholini ish bilan ta'minlash maqsadida Olot to'quv fabrikasini tashkil etishga kirishilgan. Qorako'l va Olot tumanida yetishtirilgan paxta navining sifati jahon bozorida xaridorgirligini hisobga olib, Olot tumanida to'quv fabrikasi ishga tushirilishi tezlashtirilgan.

Olot tumani mamlakatimizning xorijiy davlatlarga chiqadigan hududlardan biri sanaladi. Olot to'quv fabrikasi 1986-yilda loyihalashtirilgan va 1986–1987-yillarda qurilish ishlari olib borilgan. Olot tuman markazi Xalfa qishlog'ida qurilish loyihasi asosida qurilgan. Buxoro to'qimachilik kombinati buyurtmalari

asosida ish olib borilgan. Olot xo'jaliklararo qurilish boshqarmasi rahbari Bolta Elmurodov va ish boshqaruvchi Sayli Yo'ldoshev bevosita qurilish ishlariga ma'sul qilib belgilangan. O'sha paytlar tuman ijroiya qo'mitasi raisi Doniyor Toshev boshchiligidagi qurilish shtabi tuzilib, bevosita qurilish ishlari nazorat qilib borilgan. Qurilish ishlari 1987-yilda tugatilib, Olot to'quv fabrikasiga 560 dona AT-100 to'quv dastgohi o'rnatilgan. Yillik gazlama ishlab chiqarish hajmi 24 million metrqa moslashtirilgan.

Olot to'quv fabrikasi 1987-yil avgust oyida to'qimachilik mashinalari to'liq ishga tushirilib, foydalanishga topshirilgan. Murakkab texnologiyalar va zamonaviy asbob-uskunalar keltirilgan. Ko'plab olotlik yigit-qizlarga yengil sanoatga doir kasb hunarlar o'rgatila boshlangan. Fabrika ma'muriyati va ishlab chiqarish binolari bilan yonma-yon ishchilar istiqomat qiladigan to'rt qavatli turar-joy binosi qurilishi tezlashtirilgan.

Olot to'quv fabrikasiga ip-kalava Buxorodan va Qorako'ldan keltirilgan va rangsiz mato Buxoroga ranglash uchun yuborilgan. [8] Jondor, Qorako'l va Olot aholisi maydoni 13 gektardan ortiq joyda qurilib faoliyat yuritayotgan Olot to'quv fabrikasiga kelib ishlagan. Ish unumini oshirish va sifatli gazlama ishlab chiqarish uchun Buxoro to'qimachilik kombinatidan mutaxassis kadrlar, masterlar jalb qilingan. O'zbekiston SSR yengil sanoat vazirligi tomonidan Buxoro to'qimachilik kombinati direktori O.U. Ishoqovga Olot shahrida tashkil etilgan to'quv fabrikasi Buxorodagi ip-bo'yash va pardozlash fabrikalari bilan hamkorlikdagi ishlarini tezlashtirish va belgilangan rejani ortig'i bilan bajarishi sizning kombinatingizga bog'liqligini ma'lum qilamiz deb bayon etilgan [9]. Olot to'qimachilik dastgohlari Buxoro to'qimachilik kombinatidagi mexanika zavodi mexaniklari tomonidan ta'mirlangan. To'qimachilik dastgohlarining yili eski yoki jahon standartiga javob beradigan dastgohlar soni kam bo'lgan. Shunga qaramasdan, olotlik to'quvchilar uch smenali ishni davom ettirib berilgan majburiyatni o'z vaqtida bajarishga harakat qilgan. Fabrika atrofida bog'cha, oshxona va dam olish maskanlari qurilish ishlari olib borilgan. Asosan fabrikada o'zbek, turkman, rus va ozarbayjonlar ishlagan.

Buxoro to'qimachilik sanoati xodimlari aholiga tayyor gazlamalar yetkazib berishdan tashqari vatanparvarlik ishlarida ham faol bo'lgan. 1988-yil 7-dekabrda Armanistonning shimoliy hududlarida kuchli zilzila sodir bo'lgan. 1988-yil 11-dekabrda Buxoro to'qimachilik kombinati va filiallaridagi fabrikalar jamg'armalaridagi mablag'laridan yordam sifatida zilzila bo'lgan hududga dori-darmonlar, kiyim-kechaklar va sochiqlar yuborilgan. Olot to'quv fabrikasi ishchilari ham bir kunlik ishlagan mablag'larini zilziladan talafot ko'rganlar uchun tashkil etilgan jamg'arma hisobiga o'tkazganlar. Xuddi shunday voqea 1989-yil 23-yanvarda Tojikistonda kuchli zilzila sodir bo'lgan. Qardosh xalqlarga yordam berish an'anasida Olot to'quv fabrikasi ishchi masterlari, mexaniklar ham bir kunlik oyliklarini jamg'armaga o'tkazganlar va beminnat yordam berilgan.

Qayta qurish siyosati va bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari, 1989-yildan filial fabrikalariga moliyaviy mustaqillik berilishi fabrikada bir qancha yangiliklar va erkinliklarni yarata boshlagan. Yangi to'qimachilik mashinalari sotib olinishiga imkoniyatlar berila boshlangan. [10] Fabrikaning rejasida to'quv fabrikasi yonida yigiruv fabrikasini bunyod etish talabini o'rta tashlab, yuqori tashkilotlarga murojaatlar qilingan. Chunki qo'shma fabrika bo'lmasa, yuqori ko'rsatkichlarga erishib bo'lmagan.

To'quv sexida 1989–1992-yillarda 320 ishchi ishlagan. Sexda bir chorakda 2 million 910 ming metr gazlama ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Yonida zamonaviy oshxona bo'lib, ovqatlar arzon narxlarda tashkil etilgan. Sababi, 10 gektar maydonga sabzavot, poliz va boshqa oziq-ovqat ekinlari ekilgan. To'qimachilik fabrikasi ishchilari oshxonasi uchun kichik chorvachilik firmasi bo'lib unda 70 dona qo'y parvarish qilingan.

Xulosa o'rnida qayd etish kerakki, tumanlarda tashkil etilgan to'quv, yigiruv fabrikalarida Buxoro to'qimachilik kombinati tomonidan berilgan rejalarni bajarish uchun ish jarayonlari yaxshi tashkil etilgan. Ichki tartiblar ham yaxshi yo'lga qo'yilgan holatda sifatli ip va gazlamalar ishlab chiqarilgan. Albatta, buning uchun G'ijduvon, Vobkent, Qorako'l va Olot tumani fabrikalarda rejani ortig'i bilan bajarish uchun uch smenada tun-kun ishlar amalga oshirilgan. O'zbekiston va Ittifoq manfaatlari uchun ip-kalavalar va tayyor gazlamalar tayyorlangan. To'qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun Buxoro hududida paxta maydonlari hisobsiz kengaytirilgan. Ittifoq respublikalaridan Buxoro to'qimachilik sanoatiga buyurtmalar ko'plab tushib turganligi sababli buyurtmalarni bajarish uchun tumanlardagi filiallarga ham rejalarni bajarish mas'uliyati yuklangan. G'ijduvon va Qorako'l tumanidagi paxta tozalash zavodlarida 1989–1990-yillar ingichka tolali paxta navini rejadani ortiq qilib bajargan [11]. Bu esa to'qimachilik salohiyatiga yetarli paxta tolalari mavjudligidan darak beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Солиев А., Назаров М., Курбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. –Тошкент, 2010. – Б. 60.
2. Vobkent tuman davlat arxivi, 157 - fond, 1 - ro'yxat, 696 - yig'ma jild, 41 - 42 – varaqlar.
3. Muallifning R.N. Rajabov bilan shaxsiy muloqoti. 2022-yil 10-aprel.
4. Сааков В. В Сотни адресов (История Бухарского текстильного комбината) – Ташкент: Меҳнат, 1991. – С. 63.
5. Ражабов Қ., Рашидов У., Рашидов О. Ғиждувон туман тарихи. –Тошкент: Tafakkur 2015. –Б 40.
6. G'ijduvon tuman davlat arxivi, P - 374 - fond, 1 - ro'yxat, 4 - yig'ma jild, 61 - varaq.
7. Muallifning G'R. Norpo'latov bilan shaxsiy muloqoti 2022-yil 23-avgust. * Norpo'latov G'aybullo Ramozanovich 1963-yil Qorako'l tumanida tug'ilgan. 1987-yilda Qorako'l yigiruv fabrikasida oshpaz bo'lib ishlagan. Yengil sanoat texnikumni o'qigach, 1990-2008-yillarda sovutish bo'limini texnik nazorat holatini nazorat qilish bo'limida ishlagan. Qorako'l yigiruv fabrikasi o'rnida tashkil etilgan "Real Teks Qorako'l" ip ishlab chiqarish fabrikasida ishlaydi.
8. O'zbekiston milliy arxivi, P – 2792 - fond, 1 - ro'yxat, 238 - yig'ma jild, 61 - varaq.
9. Muallifning H. Ma'mirov bilan shaxsiy muloqoti. 2022-yil 23-avgust.
10. Olot tuman davlat arxivi, 30 - fond, 1 - ro'yxat, 85 - yig'ma jild, 34 - varaq.
11. Utayeva F.X. "Buxoro viloyatida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi: yutuq va muammolar" nomli monografiya. Durdona 2023. –Б 102